



## TARIXIYLIK JIHATDAN O'ZBEK TILI LEKSIKASI. UMUMIY VA CHEGARALANGAN LEKSİKA

---

*Uzoqova Zarina*

*G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar mактабининг*

*Ona tili fani o'qитувчиси*

**Annotatsiya:** So`z va iboralarni zamonaviy qatlamga kirishida ularning nutqda oz-ko`p ishlatilishi yoki bu qatlam so`zlari til jamoasining barcha a'zolari nutqida barovar ishlatilishini hisobga olish yaramaydi, Masalan, terminologik leksikaga oid so`zlarning iste'mol doirasi chegaralangan.

**Kalit so'zlar:** O`zbek, So`z va iboralarni, nutq, zamon, eski so`z, qatlam, leksiya, yangi so`z, lug`at.

O`zbek tili leksikasining chegaralangan qatlami: 1) zamonga ko`ra; 2) territoriyaga ko`ra; 3) ijtimoiy holatga ko`ra uchga bo`lib o`rganiladi,

Tilda ayrim so`zlar eskirab iste'moldan chiqsa, ma'lum talablar asosida yangi so`zlar paydo bo`ladi.

Hozirgi o`zbek adabiy tili nuqtai-nazaridan eskirgan so`zlarning jami eski qatlam (eski leksika), yangi so`zlar jami yangi qatlam (yangi leksika) deyiladi,

Bu ikki qatlamdan tashqari, lug`at sostavida adabiy til uchun, odatdagi, eskilik va yangilik bo`yog`iga ega bo`lmagan so`zlar qatlami ham bor Bu qatlam zamonaviy qatlam yoki neytral qatlam deyilidi.

Demak, zamon nuqtai-nazaridan o`zbek tili leksikasi uch asosiy qatlamga bo`linadi.

1. Zamonaviy qatlam
2. Eski qatlam
3. Yangi qatlam,

Eskilik va yangilik bo`yog`iga ega bo`lmagan so`zlar zamonaviy qatlam deyiladi. O`zbek tili leksikasining asosini shu qatlimga oid so`zlar tashkil etadi.

So`z va iboralarni zamonaviy qatlamga kirishida ularning nutqda oz-ko`p ishlatilishi yoki bu qatlam so`zlari til jamoasining barcha a'zolari nutqida barovar ishlatilishini hisobga olish yaramaydi, Masalan, terminologik leksikaga oid so`zlarning iste'mol doirasi chegaralangan. Ammo, ular zamonaviy hisoblanaveradi.



Funksional-normativ, ya'ni zamonaviy so`zlar bilan bir qatorda hozirda kam iste'mol bo`lib qolgan eski qatlama ham uchrab turadi. Eskirgan so`zlarga ikki tip hodisa:

1. Hozirgi til nuqtai-nazaridan so`z ham, u nom bo`lib predmet, hodisa ham eskirgan iste'moldan chiqqan mirshab, amir, arbob. Bunday so`zlar istorizmlardir.

2. Narsa va hodisaning, tushuncha yoki tasavvurlarning o`zi emas, balki uning nomi eskirgan bo`ladi. Handasa (geometriya), sarf (morphologiya), nahv (sintaksis). Bunday so`zlar arxaizmlardir,

Demak, eskirgan so`zlar ikki ko`rinishga ega:

1. Istorizmlar; 2. Arxaizmlar

Davr o`tishi bilan muayyan paytda zamonaviy hisoblangan ba`zi predmetlar qo`llanishdan qoladi. Natijada, bu narsi va hodisalarni ifodalovchi so`zlarni ishlatalish ham susayayadi va asta-sekin til lug`at sostavining aktiv qatlamidan passiv qatlamga o`tadi.

Shu sababli bu tip so`zlar o`tmish davr fakti-istorizm deb yuritiladi. Istorizmlarning leksik frazeologik ko`rinishlari mavjud.

Eskirib iste'moldan chiqqan o`z sinonimiga ega bo`lmagan so`zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho`ri, yuzboshi. Istorizmlarning yuzaga kelishi tabiat va jamiyatdagi o`zgarishlar, yangilanish va eskirishlar bilan aloqadordir. Istorizm eski lug`at birligidir. Bu tip so`zlar hozirgi davr kishisi uchun tushunilishi qiyin bo`ladi. Ularni maxsus izohlar orqali anglash mumkin.

Uzbek tili leksikasidagi istorizmlarga misollar:

- ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog`liq so`zlar: podshoh, qul, quloq, batrak.
- mansab, amal unvonlar nomi: amin, arbob, zakotchi, udaychi, shotir.
- ba`zi hujjat nomlari: vasiqa, sanad, vakfnoma 4) maktab va maorif: mulla, xalfa, mudarris, haftiyak

- uy-ro`zg`or buyumlari nomi: charh duq kajava, juvoz.
- o`lchov, pul birliklari nomi: botmon, qadoq, tanob, arshin, tanga, qora pul.
- kiyim-kechak nomlari: choriq, kimxob, qalami, quloh va boshqalar.

Istorizmlarning bundan tashqari frazeologik semantik turlari ham mavjud.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o`z ekvivalentiga ega bo`lmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi: madrasa tuprog`ini yalamoq, issiq-sovuq qilmoq, tarki dunyo qilmoq, so`fi qilmoq va h.k.

So`zning yangi ma'nosi



So`z material tomondan eskirmay, ma`no tomondan eskiradi. Bunda so`z Yangi davrda yangi ma`noda qo`llanaveradi. Uning oldingi ma`nosи o`tmishga tegishli bo`lib qoladi. Bu semantik istorizm deyiladi:

rais-boshliq, tashkilot xodimi So`zning eski ma`nosи rais-diniy rasm-rusum nazoratchisi arbob-fan sohasida beriluvchi unvon

saroy-madaniy tadbirlar joyi oqsoqol-keksa, hurmatli boy-badavlat, serob, mo`l arbob-qishloq oqsoqoli, arrestokrat

saroy-xon, podsho qarorgohi oqsoqol-mahalla boshlig`i boy-feodal sinf vakili Chog`iashtiring: Boy cho`chib o`zini chetga oldi (O). Dasturxonlar mevalarga boy. (M. Alaviya).

Istorizmlar ko`proq o`tmish haqida hikoya qiluvchi zamonaviy asarlarda uchraydi. Bu bilan davr ruhi, koloriti beriladi

Istorizmlarda uslubiy bo`yoq so`z ko`chma majoziy ma`nolarda qo`llansagina paydo bo`ladi. M: O`zi xon, soyasi sultom bu kishini. Bu student alifni kaltak deydi.

### **ARXAIZMLAR**

Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o`z ekvivalentiga, sinonimiga ega bo`lgan so`zlarga arxaizmlar deyiladi. Masalan, ulus (xalq), firqa (partiya), bitik (kitob), tilmoch (tarjimon).

Istorizmda predmet ham, nomi ham eskirgan bo`ladi, arxaizmda esa predmet yoki hodisa zamonaviy bo`lib, ning utiish nomi eskiradi. Natijada, predmet yoki hodisa Yangi bilan yuritiladi. Tilda so`zlarning arxaiklashishi asta sekin amalgamoshadi, Arxaizmlarning zamonaviy dublet (sinonim)i bu so`z ustidan funksional-normativ jihatidan g`olib chiqqan so`zdir.

Tilda eskirish turli ko`rinishda namoyon bo`ladi; so`z yoki so`z ma`nolaridan biri eskirishi mumkin. Yoki so`zning biror morfem bo`lagi eskirishi mumkin. Xuddi shunigdek tilda frazeologik iboralarning eskirishi kuzatiladi.

Shunga ko`ra arxaizmlar, eng avvalo, uch katta guruhgа bulinadi:

1) leksik arxaizmlar; 2) grammatik arxaizmlar; 3) frazeologik arxaizmlar,

### **LEKSIK ARXAIZMLAR**

Narsa va hodisalarining nomlaridan biri eskiradi: ulus (xalq), yozuq (gunoh) kabi.

Leksik arxaizmlar eskirgan hodisaning xarakleriga ko`ra. O`z navbatida ikkiga bo`linadi:

1) leksik arxaizmlar; 2) semantik arxaizmlar

Leksik arxaizm so`zning, so`z vazifasining zskirishi bo`lsa semantik arxmizm ko`p manoli so`z ma`nolaridan birining eskirishidir. Bunda so`z shakli eskirmaydi,



balki so`z semantik tarkibidagi semalardan biri eskiradi. So`z qobig`i endi o`sha ma`noni anglatmaydigan, ifodalamaydigan bo`lib qoladi. O`sha ma`noni anglatish so`zning hozirgi emas, o`tmish vazifasi hisoblanadi. Natijada so`zning o`sha manosi eskirgan, endilikda unutilgan bo`ladi. Masalan, afandi so`zi o`qituvchi ma`nosiga ega bo`lgan. Ammo bu ma`no hozir eskirgan. Anjuman so`zi bir kasb egalarining o`ziga xos yig`ilishi ma`nosini ifodalagan. Ozod so`zi bolalarni darsdan javob berilishi ma`nosini ifodalagan; Bolalar o`qishlarini to`xtatib domlaga qaradilar. – Ozod!–deb yubordi domla (S. A.)

Semantik arxaizmlar so`z va uning leksik ma`nosi bilan bog`liq bo`lganligi uchun uni leksik-semantik arxaizmlar deb ham yuritiladi.

Leksik arxaizmlarga so`zning shakliy va talaffuz xususiyatlari bilan aloqador bo`lgan leksik-fonetik leksik-orfografik shunmngdeq aktsentopogik arxaizmlar ham kiradi.

Aktsentologik arxaizm so`z urg`ularidagi o`zgarishlar natijasida sodir bo`ladi. So`z urg`usi vaqt o`tishi bilan boshqa bo`ginga ko`chadi. Urguning oldingi holati eskiradi: simvol, epigraf so`zlari rus tilida avvallari simvol, epigraf deb talaffuz qilingan. Bu talaffuz hozir eskirgan, arxaik hisoblanadi.

Eskirish so`zining butun tarkibida emas, balki uning morfematik qismida yuz berishi mumkin. Bunday eskirish grammatik arxaizmni tug`diradi. Bu haqda to`liq ma'lumot E. Kilichevning S. Ayniy asarlarida grammatik arxaizmlar, O`TA, 1969. 1 son maqolasida berilgan.

Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o`z ekvivalenti, sinonimiga ega bo`lgan morfologik shakllarga grammatik arxaizmlar deyiladi: -?a (-ga), -din (-dan); ulamoga, jondin;

-gan (-gan)( -mish (-gan); borg`an, bormish;

-gi ( gi): burung`i zamonlar;

-ur (-ar): kelur, borur;

-g`ay, -gay {-sing borg`ay.borgay;

-Qani orqamdan yur. Senga aygadurgan yana bir so`zim bor! (O. Yoqubov).

Grammatik arxaizm so`zga, ya`ni so`z tarkibiga aloqador bo`lganligi uchun leksik grammatik arxaizm deb ham yuritiladi

Eskirib istemoldan chiqqan, ammo o`z sinonimiga ega bo`lgan frazeologik iboralar, frazeologik arxaizmlar deyiladi: Jismini dol aylamoq (qaddini bukmoq), fotiha olmoq (javob so`ramoq), gasadduqot qilinmoq (o`ldirilmoq) kabi.

Arxaizm va istorizmlar o`zaro quyidagi belgilari bilan farq qiladi:



- arxaizmlar hozir mavjud narsalarning, istorizmlar esa o`tmish narsa-hodisalarning atamasidir;
- arxaizmlarning sinonimi mavjud, istorizmlarning sinonomi yo`q;
- istorizm birdan-bir yakka nom, uning o`rnini bosuvchi so`z yo`q. Arxaizm qo`sh nomning eskirib qolganlaridan biri, eskirkani;
- arxaizm nominativ hamda uslubiy vazifa bajaradi istorizm nominativ vazifa bajaradi;
- arxaizmlarning paydo bo`lishi til taraqqiyoti qonunlari asosida bo`ladi, istorizmlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga ko`ra paydo bo`ladi,

Arxaizm va istorizmlarni yaqinlashtiruvchi belgi ularning har ikkalasi ham eskirkani, nonormativ leksika ekanligidadir.

Arxaizm va istorizmlardan xronizmlarni farqlash lozim Xronizm biror vogelik nomini vaqt kelib boshqasi bilan almashtirishdir.

### **YANGI QATLAM**

Til leksikasiga eskirish xususiyati bilan bir qatorda yangilanish ham xosdir. Jamiyatning rivoji, ob`yektiv borliq, iibiatdagi o`zgarishlar yangi so`z va atamalarni tug`diradi.

Yangi so`zlar qatlami tilshunoslikda yangi leksika deb ham yuritiladi.

Ob`yektiv ehtiyoj tufayli va til qonun-qoidalalariga mos ravishda yaratilgan yangi so`zlar til leksikasini boyitadi.

Yangi so`zlar quyidagi yo`llar bilan yaratiladi:

- affiksatsiya, so`z o`zaklarga yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan: reketchi, saylovchi tadbirkor, hujumkor.
- kompozitsiya; O`zakka o`zak qo`shish bilan: yodnama, kitobsevar, cho`lquvar, bozor iqtisodi.
- so`zlarni juftlash asosida: ishchi-yoshlar, ilmiy-nazariy, hisobotsaylov.
- o`zbekcha qisqartma so`zlarni yaratish asosida: BuxDU. boshbuu BMT.
- traditsion so`zlarni yangi ma`noda qo`llash asosida: millat, vatan, ziyorat, mehnat, ozodlik.
- so`z o`zlashtirish asosida: bakalavr, magistr, fermer.
- kalka asosida: ekranlashtirish, radiomarkaz, shanbaliq radioto`lqin.

Yangi so`zlar tilda dastlab neologizm sifatida paydo bo`ladi. Neologizm (yunoncha:

yangi so`z demak) o`zida yangilik bo`g`ini saqlagan so`zlarga neologizmlar deyiladi. Masalan: fazogir, kitobsevar, hushyorlik jamiyati, fidokorlar partiyasi.



Yangi so`z o`z yangilik bo`yog`ini yo`qotsa, tilda faol qo`llanib, odatiy so`zlar qatoriga o`tadi: 1930 yillarda paydo bo`lgan traktor, mashina, sovxozi, zveno kabi so`zlar faol so`zlarga aylanib ketdi. Ayrimlari eskirib ham qoldi: MTS, patefon, sovxozi, rayijrokom.

Demak neologizm nisbiy tushunchadir. O`z paydo bo`lish doirasi, muhitiga ko`ra neologizmlar ikkiga bo`linadi:

1. Umumtil (umumnutq neologizmlari);
2. Individual nutq neologizmlari.

Individual nutq neologizmlari alohida shaxslar, adiblar tomonidan favqulodda yaratilgan so`zlardir. Shu tufayli tilshunoslikda bu tip so`zlar okkazionalizmlar deb yuritiladi, Bunday neologizmlarga M.Shayxzoda tomonidan yaratilgan Toshkentnoma, fazoshumul, nuriston, ipaklashsin, G.G`ulomning yalovkash, sharofobod kabilarni kiritish mumkin, Neologizmlar umumadibiy leksikani to`ldirib, boyitib turadi.

Neologizm tilga singib ketishi uchun ikki yetakchi talabga javob bermog`i kerak.

1. Yangi so`z – neologizm tushunarli bo`lishi, ma`nosi aniq, tinglovchiga tez etib boradigan bo`lmog`i kerak.
2. U tilda mavjud va yashovchan modellar asosida yaratilmog`i lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. Hozirgi o`zbek tilining leksik qatlamlari. – T: Fan, 1985 y.
  2. Begmatov E. Boboyeva. A. Asamiddinova M. Nutq madaniyati va adabiy norma. – T: Fan, 1973 y.
  3. Jo`rayev B. O`zbek adabiy tili va o`zbek dialektlari, Toshkent, 1963.
  4. Tojiyev Y. O`zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari- T 1994.
  5. Shomaqsudov A. O`zbek tili stilistikasi. – T . 1981.
  6. Jo`rayev B. O`zbek adabiy tili va o`zbek dialektlari, Toshkent, 1963 y. 7. Tursunov U va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili, Toshkent, 1992.
- .